

**UZBEKISTAN**

**LANGUAGE & CULTURE**

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:  
TIL VA MADANIYAT**

**Lingvistika**

2025 Vol. 3 (1)

[www.linguistics.tsuull.uz](http://www.linguistics.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Hamidulla Dadaboyev  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Zulxumor Xolmanova  
**Mas'ul kotib:** Dilafruz Muhammadiyeva

### **Tahrir hay'ati**

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Hamidulla Dadaboev  
**Deputy Editor in Chief:** Zulkhumor Kholmanova  
**Executive secretary:** Dilafruz Muhammadiyeva

### **Editorial Committee**

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

### **Journal information**

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.linguistics.tsuull.uz

# MUNDARIJA

## Lingvistika

### **Hamidulla Dadaboyev**

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

### **Dilafruz Muhammadiyeva**

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

### **Sherzod Atamuradov**

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

### **Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova**

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

### **Nargiza Imomiddinova**

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

### **Sabohat Qahhorova**

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

### **Qudratillo Bakirov**

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

### **Charos Jumaniyozova**

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv .....87

### **Мехрибон Шамсиддинова**

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку .....97

### **Dildora Suyunova**

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

### **Shodiya Qurbonova**

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

### **Umriniso Pulatova**

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

<b>Maftuna Mamarasulova</b>	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari .....	133
<b>Madina Akramdjanova</b>	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi .....	142
<b>Nargiza O'ralova</b>	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
<b>Lola Usmonova</b>	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
<b>Muxlisa Arislanova</b>	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
<b>Durdona Bultakova</b>	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
<b>Ozodaxon O'ktamova</b>	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
<b>Niluzar Axmedova</b>	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

## Content

### Linguistics

#### **Hamidulla Dadaboev**

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century  
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

#### **Dilafroz Muhammadiyeva**

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

#### **Sherzod Atamuradov**

Factors that cause poor quality translation work.....31

#### **Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova**

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue  
Lessons .....44

#### **Nargiza Imomiddinova**

Derivational features of word-terms in the system of military  
terminology of the Chinese language .....49

#### **Sabohat Qahhorova**

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

#### **Qudratillo Bakirov**

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic  
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

#### **Charos Jumaniyozova**

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute  
semantics .....87

#### **Mekhribon Shamsiddinova**

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in  
teaching the Chinese languages .....97

#### **Dildora Suyunova**

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of  
military names .....109

#### **Shodiya Qurbonova**

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

#### **Umriniso Pulatova**

The socio-stratification of youth slang.....125

#### **Maftuna Mamarasulova**

Theoretical foundations of the nomination process.....133

**Madina Akramdjanova**

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

**Nargiza O'ralova**

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

**Lola Usmonova**

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

**Muxlisa Arislanova**

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

**Durdona Bultakova**

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

**Ozodaxon O'ktamova**

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication .....183

**Niluzar Akhmedova**

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English .....193

## Qadimgi turkiy tildagi vaqt ma'noli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va "Devonu lugatit turk" da ifodalanishi

Qudratillo BAKIROV<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada Qadimgi turkiy til davridagi vaqt semali birliklar taraqqiyotini leksik-semantik, struktur jihatdan tahlil qilish, tarixiy korinishlarini jamlash, eski turkiy tillarga munosabatini belgilash asosiy planga qo'yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda vaqt semali birliklarni tavsiflash, semantik tahlilini amalga oshirish, vaqt ifodasining tarixiy ko'rinishlari haqida asosli ma'lumotlar berish vazifalari belgilandi. Buni amalga oshirish uchun eski davr o'z qatlam vaqt leksemalari "Devonu lug'atit turk" asarida mavjudligi tahlil etildi hamda ulardagi differensial va umumiy jihatlar asoslandi

**Kalit so'zlar:** *etimologiya, turkiy tillar, semantik maydon, o'z qatlam, til integratsiyasi, Suvarnapraxsa, leksema.*

Tilimizda vaqt semantik maydoni qanday va qachon shakllangan degan savol ancha murakkab, lekin ularning qadimgi davrda qay holatda bo'lgani va maydon hosil qilish imkoniyati darajasi qandayligi yanada qiziq. Tabiiyki, bunga o'sha davrda yaratilgan yodnomalar, bitiklar va hujjatlar orqali javob olishimiz mumkin. "Oltin yoruq" va "Buddistlar hikoyalari" asaridan bugungi kunimizgacha yetib kelgan qismlar shular jumlasidandir. "Oltin yoruq" buddaviylikka e'tiqod qilgan turkiy qavmlar orasida mashhur bo'lgan qaydnoma. Asl nomi "Suvarnapraxsa" bo'lib, Sanskrit tilidan Xitoy tiliga tarjima qilingan.

X asrda Beshbaliq shahrida Sengi Seli Tudug xitoy tilidan qadimgi turkiy tilga tarjima qilgan va eski uyg'ur-turk yozuvida ko'chirgan. O'n afsonani ichiga olgan bu asar 675 sahifadan iborat va bu diniy mazmundagi asardir. Oltin yorug' asari 1930-yilda nemis tiliga, 1994-yilda hozirgi turk tiliga tarjima qilingan.

---

<sup>1</sup> Bakirov Qudratillo Xamidillo o'gli – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

**E-pochta:** tillo.bakirov@mail.ru

**ORCID ID:** 0009-0004-0643-0906

**Iqtibos uchun:** Bakirov, Q.X. 2023. "Qadimgi turkiy tildagi vaqt ma'noli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va "Devonu lugatit turk" da ifodalanishi" *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.2025-3: 76-86.*

Demak, bu bitiklarda "Devonu lug'otit turk"dan 100-150 yil farqli bo'lgan vaqt tushunchalari mavjud. Bu esa ishning samaradorligini oshiradi, ya'ni vaqt semali leksemalarni faqatgina tarixiy emas, tarixiy-qiyosiy jihatdan o'rganishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bu davrda uyg'urlarda Sanskrit tili ta'siri kam bo'lgan deya olmaymiz, ayniqsa matnlar diniy mavzuda bo'lsa, chunki buddaviylik uchun zarur bo'lgan til Sanskrit tilidir. Kecha, bugun va ertaga buddaviylida bu masalar muqaddaslashtirilgan.

"Oltin yorug'" kabi buddaviylikka oid hikoyalarda ifodalanga vaqt semali leksemalarni quydagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Vaqtni umumiy maydon nomi sifatida ifodalaydigan tushunchalar

**I. Kolu:** Vaqt, muddat. Astronomiya bilan bog'liq matnlarda, odatda, "o'n soniya davri" degan ma'noni anglatadi [EDPT, 617a-b]. Odatda bir xil ma'noga ega, *ud* leksemasi bilan sinonim sifatida matnlarda uchraydi. Bu leksema DLT da uchramaydi. "*çak amti maña ugrayu atözümün isig özümün titgülük idalaguluk üd kolu soka kälti*"[AP 184-186] «Hozir , ayniqsa, tanamdan, hayotimdan ketmoqchi bo'lgan onimda keldi». *kaçan birök odgurak tägingülük üdi kolusı kälösär nätäg kılmış ärsär antag tüş berü* [DKPAM 02639-02641] "*Vaqtii kelsa, odam o'zi kabi natijalar beradi*".

**II. Tu<sup>o</sup>:** Uning asosiy ma'nosi «imkoniyat, fursat» bo'lsa-da, ba'zi jumalalarda "vaqt, muddat" degan ma'noni anglatadi. Bu leksema [DLT 2017:366]da shu shakldagi leksema bor, lekin bu ma'noni ifodalamaydi. Tu<sup>o</sup> –kun chiqqandan keying vaqt; tus oldi –tush vaqti. *birök ogulum bu tušta tirig üsän kavıssar ölsär mänin atözüm ämgänmägäy män arıtı* [AP 429-431] "*Agar o'g'lim shu fursatda sog'salomat kelsaydi, mening tanam umuman azob chekmasdi*".

**III. ugur:** Yuqoridagi tushunchada bo'lgani kabi, uning asosiy ma'nosi "imkoniyat, tasodif". Biroq, namunadagi jumalardan ko'rinib turibdiki, "vaqt, muddat" ma'nosini ham anglatadi. Bu leksema [DLT 2017:35]da quydagicha: 1)ogur – omad, imkon, davlat. 2) ogur – vaqt; ne ogurda kelding –qay vaqt kelding. *bir ugurta ol elig han üç oglanı birlä taştın tagta arıgta ilinçükä bartı* [AP79-81] "*shu fursatda o'sha hukmdor uchta o'g'li bilan ko'ngil ochish uchun toqqa, o'rmonga chiqdi*".

**IV. üd:** Vaqt, muddat. eski uyg'ur bitiklarida vaqt. Bu uchrashish uchun ishlatiladigan eng keng tarqalgan tushunchalardan biridir. *ud* odatda alohida ishlatilishiga qaramay, olmosh va kelishik qo'shimchalari bilan birgalikda ishlatilgan. Bu leksema [DLT 79;I-jild;1960]da quyidagicha: 1) od –zamon,davr; od kechar –

zamon o'tar. Yana bir shu davrga oid asarda **öd** vaqt. Ajıqlıy turur bu ölüm belgülüg, ödi kelmäginèa er ölmüz külüg – Shubhasiz, bu o'lim muhaqqaqdir, (ammo) vaqti-soati yetmaguncha mard bahodirlar o'lmaydilar [QBK, 12115]. *öñrä ärtmiş üddä bu çambudivip uluşta m[a]harate atl[i]g elig han bar ärti [AP 59-61]* “Avvallari (bundan oldingi vaqtda) ushbu Kambudivip mamlakati - Maharateda bir hukmdor bor edi”.

**V. üdün:** Zamon, vaqt, muddat. DLT da Vosita kelishigi bilan kelgan holati; uchraydi; “od”ning bir shakli sifatida. *ol üdün tegin munça sav sözlöp ol aç barş üskintä suna yatdı [AP 264-265]* “Shunda shahzoda shunday gapirdi va och odamning oldida yotdı”.

**VI. üdükiye:** Qisqa vaqt, on DLT da bu shakl uchramaydi. *anta ok elig bæg kapkara tünlä taviş tıñşanu bir üdünk(i)ye turtı [DKPAM08843-08845]* “O'sha erda hukmdor, qora tunda va baland ovozni tinglashga bir on to'xtadi”.

**VII. Ür:** Uzoq vaqt, davr. Üdün bilan sinonim sifatida qo'llash mumkin. DIT da bu shakl uchramaydi. *inçip olarnıñ arasında agladı ƣaki mahasatve tegin ol barsnıñ açın torukın ämgäkin tolgakın tetrü körüp tägrä täğzinip közin idi andıran ketärü umatın ür keç tetrü körü turup ötrü kodup öñi yorıp bardılar [AP177-182]* “Shunday qilib, u ular orasida yig'lab yubordi. Shahzoda Maxasatve bularning ochligini, Uning zaifligi va qiynoqlarini aniq ko'rib, uning atrofida yurib, u hech undan yuz o'girmasdan, uzoq vaqt ajratmasdan ehtiyotkorlik bilan qarab yurdi”.

## 2. Boshlanish nuqtasi yo'qligini ifodalovchi tushunchalar:

**I. ilkisiz:** azaliy,avvaldan. DLT da bu shakl aynan uchramaydi; ammo quydagi so'z unga asos vazifasini o'tashi mumkin: ilk –oldin, avval; [DLT 2017:31] va –siz affiksi belgiga ega emaslikni ifoda etadi KTS [2.1.2.1.10] *nä üçün tep tesär kim män ilkisizdin bärü bu yıdıg sarsıg kanlıg yirinlig sävgüsüz taplagusuz yarsınçıg ätözkä inçip inandım [AP 187-190]* “Nima uchun desang, azaldan bu yomon hidli, qonli sevilman jirkanch vujudga shunchalik ishondim.”

## 3. Tezlik onini ifodalovchi tushunchalar.

**I. Tavrak:** tez, darhol [DLT 2017:186] tavrak –tez,tezlik bilan; tavraqin kel –tezlik bilan kel. shaklida uchraydi. *oglıñ ölmış yerin körügsäp tärkin tavraƣı yügrük aƣların koşuglug kañlita olurup ol kamişlıg arıgka tavrak bartılar [AP 463-467]* “O'g'lingiz o'lgan yerini ko'rmoqchi edim va shoshilinch ravishda tez otlar yugurayotgan aravaga o'tirdim va darhol shu qamish yoniga kelishdi”.

**II.tärk üdün:** bir onda, tezda. [DLT 2017:142]da terk –tez; terk kel- tez kel; üdün- bu so'z yuqorida izohlandi. *ol ymä hansasvare*

teginkiyä keçmätin ara suvdaki lenhwa çäçäk täg t(ä)rk üdün ulgadtı bädüti [DKPAM 07751-07753] "O'sha shahzoda Kansasvar, (vaqt) o'tmasdan, u qisqa vaqt ichida suvdagi lotus gulidek o'sdi."

**III.tärkkäyä:** darhol, tezda. DLT da bu shaklda uchramaydi, semantik yaqinlik jihatidan "terk" asos bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. T(ä)rrkkäyä üdün täggäy siz tängässhiz burhan kutıña [AP 306-307]"Yo'ldoshsiz budda saodatiga darhol erishasiz".

**IV. Temin , teminkiya, temin ök:** tezda,shoshilib, darhol. Bu leksema DLTda uchramaydi. ötrü elig bäg t[ä]rkin ök ol rakşasıg tilägäli bardı [DKPAM 08814-08815] «Bir ozdan song hukumdor darhol u shaytonni qidirib ketdi. « temink[i]yä säniñ eçiñ arslan kälip maña antag yavlak söz sözlädi [DKPAM 5152-5153] "Tezda sening akang arslon kelib menga shunday yomon so'zlarni aytdi".

**V. Turginça ara:** tezda, darhol. Bu leksema DLTda uchramaydi. V(a)(jir tum)ş(uk)lug kurtlar yilıkl(ä)r(i)n kanların turginça ara sorup kap täg kılıp kämişürlär [DKPAM 01506-01508] "Olmos kabi qattiq og'izli qurtlar darhol uning qo'llaridagi qonni xartumdek so'rib tashladilar".

**VI. Turum ara:** Tezda, darhol. Bu leksema DLTda uchramaydi. bütün (ätözüntäki yüz) yüzägünin öni (öni kılı) bir yalın bolmış saç (üzä tur)gurup iki adakiñın turum (ara )öglüntür(äyin) [DKPAM 06121-06125] "Butun vujudidagi yuz azvu parchalanib, bigina sochi usti qo'yib ikki ayog'ini darhol qizartirdi".

**VII. Una, unakaya:** ko'p o'tmasdan, shu onda, tezda. Bu leksema DLTda uchramaydi. bu muntag osuglug törümış küçsirämış alañurmış aç barş açmak suvsamak ämgäkin ärtiñü sıklıp unakaya ölgäli turur [AP 139-142] " Shunday zayıflashgan, och qoplön, ochlik va suvsizlikdan qiylanib shu ondan o'ladigandek turardi.» män una basa yetdim [AP 247-248] men ko'p o'tmasdan topishdim".

#### 4. Avvalgilik va keyingilik tartibini ifodalovchi qo'shimchalar.

**I. ançaginça:** bu vaqt, -gandan keyin. Bu leksema DLTda uchramaydi. ançaginça sapça ikinti buryuki kälip elig bägkä tägdi [AP 441-442] "O'shandan keyin ikkinchi qo'mondon kelib hukmdorga yaqinlashdi".

**II. ançatabärü:** shundan beri Bu leksema DLTda uchramaydi. ançadabärü bu ävdä barkta ärip sizläрниñ tözün yava<sup>o</sup> köñülünjüzlärni artatmışım bar ärs[ä]r kop köñülin kşanti beriñlär tep tedi [DKPAM 05418-05422] "Shundan beri bu uyda bo'lib, sizning olijanob va muloyim qalblaringizni yo'q qilgan bo'lsam, butun qalbingiz bilan rozi bo'ling,- debdi."

**III.ançata ken:** shundan keyin. Bu leksema DLTda aynan

uchramaydi. *ol iki tegitlär munçulayu yanın käyirkänçig kılını uliyu sıgıtayu talıp yügüp ançata ken temin andıran öñi yorıp bartılar [AP 355-358] “İkki shahzoda shu shaklda faryod qilib, yig’lab charchab, shundan keyin darhol ketdilar.”*

**IV. Anta basa; anta inaru; anta ken; anta ötrü:** shundan keyin [DLT 2017: 56] anta –undan keyin; [DLT 2017:401] basa – so’ng; anda basa keldim –undan keyin keldim. *anda ötrü elig bæg hatunı ançak[ı]ya ögsirämäki särilip saçı başı yadılıp iki eligi üzä köküzin tokıyu k[a]ltı balık suvıntın adırılıp isig kumta agınmış tæg yerta agınayu inçä täp yıgladı [AP 490-496] “Shundan so’ng, hukmdorning ayoli shunchalik aqıldan oziga kelib, sochlari sochilib, ikki qo’li bilan ko’kragiga urdi, baliq suvini qoldirib, shu kabi issiq qum ustida aylanayotgandek erga ag’darilib qichqirdi”.*

**V. [äñ] Aşnu:** [eng] oldin, avval. [DLT 2017:65] A<sup>o</sup>nu –oldin, ilgari; anda asnu keldim –undan oldin keldim. Yana birida aşnu oldin, avval, burun. Men aşnu ajajın eligkä sözüñ, ne ermiş tiläkin kim ermiş özün – Men avval fikringni, tilaging nima-yu, o’zing kim ekanligingni hukmdorga aytayin [QB, 222] *bukası aşnu ünüp teginig yumburu yatgurup tört adakın inläyü kölitdi [İKPÖ LXV. 3-6]. “Uning buqasi avval o’rnidan turdi va shahzodani ag’darib, to’rt oyog’ini erga qo’yib dafn etdi.”*

**VI. äñ ken:** oxiri DLT da bu shakldagi leksema uchramaydi. *in[çi]p näçä uzun üdün keç yatsarlar ymä ’än kenintä ölüm üd yäki yakın tægip isig özlärin üzä oynamaklıg oyun üzä ol ärmäk tarkarurlar [DKPAM 00408-00412] “Ular kech yotganlar da, oxirida, o’lim [va] shayton yaqinlashganda va ularning hayoti bilan mashg’ul bo’lganda, mavjudlik yo’qoladi”*

**VII. äñ öñrä:** avvalo, eng oldin. [DLT 2017:31] öñ –old, oldin; mendan ondun bardi –mendan avval bordi, kelishik bilan ifodalangan. *ölüm üdi yagudukta ’än öñrä öz ornınta yatıp tolپ ätözi titräyür bazar [DKPAM 07213-07216] o’lim vaqti yaqinlashganda eng oldin, o’z joyiga yotib butun vujudi titrardi.*

**VIII. basa soñ:** shundan so’ng, keyin [DLT 2017:401] da basa –keyin; yakka holda so’ng, keyin ma’nolarini anglatgan. *bu savniñ basa soñınta mahasatve tegin inçä tep tedi [AP 151-152] “Shu so’zidan keyin shahzoda Mahasatve shunday dedi”.*

**IX. Baya:** avval [DLT 2017:401; 201] Baya –Ozgina vatq oldin. Semantik jihatdan vaqt miqdori qisqargan. *ötrü tärkin yanturu yanıp yıglaşu bayakı ol bars yatur orunka bartılar [AP331-333] “Keyinroq darhol qaytib kelib yeg’laganča, shu barsning avvalgi yotgan joyiga ketdilar”.*

**X. Keç:** kech, keyin. [DLT 2017: 236; 3-jild: 1960]da Keç-kechqurun, kech: tungi payt manosini anglatgan. *näçä keç, täbärü ämgäk ämgänür sän [DKPAM 03393-03394] "Qanchadan keyin, uzoq vaqtdan beri aziyat chekyapsan"*.

**XI. sönda bärü:** uzoq vaqtdan beri. [DLT 2017:444]da son-so'ng, keyin; sen sonda kel- sen keyinda kel; misolda ayni kelishik shakli bilan uchraydi. *ögüm kañım söndä bärü meni sevmöz erti [İKPÖ LVI. 6-8] "Ota-onam uzoq vaqtdan beri meni suyishmasdi"*.

### **5. Doimiylikni ifoda etgan tushunchalar.**

**I. amru:** har doim, doimo. DLT da bu shakldagi leksema uchramaydi. *uzun turkaru amru ayıg kılınç kılğalı tögimlig bolguluk ärsär el orunu ymä nägükä k[ä]rgäklig ol tep... [DKPAM 5360-5363] "Uzoq vaqt, doimo gunoh qilishga to'g'ri kelsa, taxt nima uchun kerak-deb..."*

**II. Idañ:** har doim, davomiy. DLT da bu shakldagi leksema uchramaydi. *idän tuđçı korkınçsız köñül ülädğäy [BSU 24.9] "Har doim qo'rquvsiz yurak berasan."*

**III. kop üdün:** hamma vaqt, har doim [DLT 2017:372]da kop-ko'p, bisyor; od- vaqt,zamon; [DLT 79-;I-jild;1960]da quyidagicha: 1)od -zamon,davr; od kechar -zamon o'tar, vosita kelishigi bilan ifodalangan. *kop üdün alku beş ajun tınl[ı]glarka tüzü yadılmış tıdıqsız y[a]rlıkançuçı köñüllüg bolurlar [DKPAM 04088-04090] "Har doim beshta dunyoda ular tirik mavjudotlarga to'sqinlik qilmaydigan rahmdil ko'ngillilarga aylanishadi"*.

**IV. turkaru:** doimo, har doim DLT da bu shakldagi leksema uchramaydi. *kılıç bögdätä ulatı bi bıçgu turkaru ätözläri üzä yagar [DKPAM 01513-01515] «Qilich, xanjar va pichoq doimo vujud ustiga yog'adi"*.

**V.tün kün; tünlä küntüz:** kun-u tun, doim [DLT 2017:138]da tun -tun; tunla keldim -kechasida keldim; [139] kun -kun; bu kun bargil -bu kun bor; [182] kunduz -kunduzi shakli mavjud. 'Tun-u kun' birgalikda doimiy vaqtni ifodalagan, xuddi hozirgi o'zbek tilidagi kabi. *anta tägdükdä tün kün katıglanıp bursañ kuvragka tapıngalı ugradı [DKPAM 11013-11015] "U yerga yetguncha tun-u kun chidab, yig'ilganlarga xizmat ko'rsatish uchun g'ayrat ko'rsatdi"*.

**VI. ürüg uzati:** doimiy, har doim DLT da bu shakldagi leksema uchramaydi. *arçamak buzulmak törülüg üçün ürüg uzaçı artadı buzıldı [AP 192-194] "Buzilmas qonun bo'lgani uchun doimo buzildi"*.

**VII. üzüksüz:** surunkali, doim [DLT 2017:152]da bu shaklning zid belgisi üzüklük- uzulgan, kesilgan; shakli uchraydi, leksik jihatdan yaqin bo'lgan bu leksemaga -siz -belgiga ega emaslik affiks

qo'shilgan va 'uzulmagan holda' va "uzluksiz" ma'nolarini anglatib, davomiy vaqtni ifodalagan. *yinä ök çad[ı]rl[ı]g suvin üzüksüz tolu kayınar [DKPAM 01744-01745] "yana suv bilan surunkali qaynatiladi."*

### 6. Abadiyat va so'ngsizlikni ifodalagan tushunchalar

**I. apamulug mänjü:** abadiy, umrbod; [DLT 2017:451] da "apamulug' leksemasi uchramasada, mänjü –mangu, umrbod leksemasi uchraydi, ular shakl va ma'no jihatdan bir xildir. *bu ätözümün tişip ıdalap üzäliksiz üstünki yeg apamulug mänjü nirvanıg tilägülük busuş sakınç ämgäk tolgakıg birtäm... [AP 224-227] "Bu mening tanamdaneng yuqori abadiy nirvanadan voz kechish va uni izlash; barcha qayg'u, fikr, azob va zerikish ..."*

**II. bäk mänjü:** abadiy, so'ngsiz. DLT da ayni mazmundagi bak leksemasi uchramaydi, mangu – yuqorida izohlandi. Boshqa birida **meñjü** abadiy, mangu. Özünj meñjü ermaz atıñ meñjü ol, atıñ meñjü bolsa özünj meñjü ol – O'zing mangu emassan, lekin noming mangudir, noming mangu bo'lsa, o'zing ham mangu qolasan [QBN, 294; QBN, 226]. *...tört türlüg süümin balıkımın uluşımın kânt suzak künt[ä]ki yinçgä kırkınlarımın barça bäk mänjü sakındım ärdi [DKPAM 00821-00824] "... To'rt taraf mening armiyam, mening shahrim, mening mamlakatim, mening shahrim, mening qishlog'im, mening muloyim kanizaklarim abadiyiligini o'ylayotgan edim".*

### 7. Yakunni ifoda etuvchi tushunchalar

**I. soñ:** oxiri; [DLT 2017:444] da ayni mazmundagi soñ –so'ng leksemasi mavjud] *bu savniñ basa soñınta m[a]has[a]tve tegin inçä tep tedi [AP 151-152] "Shu so'zning oxirida shahzoda Mahasatva shunday dedi".*

### 8. Hozirni ifoda etuvchi tushunchalar.

**I. amti:** endi, hozir; [DLT 2017:63]da "amti" shakli emdi – endi, hozir ayni bir xil ma'noda uchraydi] *ay eçilärim a, biz kamagun amti isig özümüzkä ätözümüzkä ärtiñü ilinmiş yapşınmış biz [AP 152-155] "ey akalarim, Barchamiz hozir hayotimiz, vujudimizga juda bog'langanmiz".*

**II. közünür üd:** ayni vaqtda DLT da ayni bu shakldagi so'z uchramaydi. *ikinti ymä ärtmi<sup>o</sup> kälmaidük közünür üdtä... [DKPAM 00023-00027] "ikkinchi bo'lganda otibdi, kelmabdi, ayni vaqtda".*

### 9. Kelajakni ifoda etgan tushunchalar.

**I. irak üd:** uzoqda, kelasi zamon [DLT 2017:150]da Yirak – uzoq, yiroq shaklida va Od –zamon, davr [32]so'zlari qo'shilmasidan hosil bo'lgan. *ä<sup>o</sup>idgil ulug elig ärtmiş ür irak üdtä ätözün kodup yertinçü yer suvda savag eşidip kişisi mitragayini inçä tep tedi [DKPAM 03278-03282]"Buyuk hukmdor, tinglang! ... U tanasini o'tmishda*

va kelajakda qoldirib, bu so'zni yer yuzida eshitdi va uning rafiqasi Mitragay shunday dedi ... ”

#### 10. Kunni ifodalovchi tushunchalar

**I. bukün:** bugun [DLT 2017: 139]da ifodalanganidek, “bu kun borgil- bugun bor” ayni mazmunni ifodalaydi. *ay inilärim mäniñ bukünki kün ärtiñü kork<g>um bäliñlägüm kälir [AP 90-92] “Ey inilarim, bugun mening anchagina qo'rquvim bor”.*

**II. kün:** kun [DLT 2017: 139]da ayni shakl va ma'nodagi leksema mavjud. *inçip kayu kün burhan kutın bulsar meni titmäj [İKPÖ XL. 6-7] “Shunday qilib Buddaning baxtini qaysi kuni topsangiz ham, meni inkor qilmang”.*

**III. yarın:** Ertasi kun [DLT 2017: 250;2-jild;1960]da ayni shu shakl ma'nodagi “yarın –ertasi kun” leksema mavjud. *adaşlarım-a bukün barmanlar yarın mindidä tapag udug alıp temin bargay sizlär [U IV, D. Das Hasen-Jâtaka ‘T III 84-36’, 85-87] “Ey do'stlarim bugun ketmang, ertaga mendan xizmat olibgina keting”*

#### 11. Kun qismiga oid tushunchalar.

**I. ertä:** sahar, ertalab [DLT 2017: 63]da erta/irta –erta, tong, sahar vaqti; bu leksemalar ayni shakl va ma'noga ega. *tañta ertä eçin arslan üñürintin ünüp anta ok katag 'ätnägäy [DKPAM5178-5180]“Ertalab akangiz sher g'oridan chiqib, u erda qattiq qichqirdi”.*

**II. tañ:** tong, tong vaqti [DLT 2017: 443]da tañ –tong; ayni shakl va mazmundagi leksema uchraydi. *yettinç kün tañ tañlayur erkän ädgü ögli tegin ulug küvrüg tokıtıp inçä tep yarlıgkadı [İKPÖ XXXI. 6-XXXII] “Ettinchi kun tong bo'lganda, yaxshi o'ylangan shahzoda U katta barabanni chaldi va dedi.”*

**III. tün:** tun [DLT 2017:138]da tün–tun; ayni shakl va mazmundagi leksema uchraydi. ötrü ol hariçandre tegin bu muntag sakınıp kap kara tünlä tüz tün yarımında orunıntın örü turdı [DKPAM 05400-05403] «Keyinchalik o'sha Shahzoda Xarikandra shunday deb o'yladi va qora tun o'rtasida o'rnidan turdi. «

#### 12. Kunlar birligini ifodalagan tushunchalar

**I. ay:** oy; [DLT 2017:46]da ay–oy,30 kunlik muddat; ayni shakl va mazmundagi leksema uchraydi. *küniñä ayıña munçulayu berip ağıltakı ağı barım azkına kaltı [İKPÖ VII. 4-6] “Har kuni, har oy shu tarzda pul berib, xazinadağı boylik kam qoldı”.*

**II. yıl:** yil; [DLT 2017:324]da yil–yil, 365-366 kundan iborat muddat; ayni shakl va mazmundagi leksema uchraydi. *miñ tümän yıl anta açığ ämgäk ämgänip isig özläri üzülmäz [DKPAM 01651-01653] “Ming, o'n ming yil u yerda achlik va qiyinchilik bilan umri tugamasdi”.*

**Xulosa.** Tahlilga tortilgan vaqt ma'noli leksemalarning asosiy

qismi hozirgi kungacha tilimizda mavjud o'z qatlam leksemalari bo'lib, mazkur so'zlar bir qancha yasama temporal birliklar uchun yasovchi asos va birikma tipidagi birliklarning tobe yoki hokim qismi sifatida ancha faol qo'llaniladi. Ushbu turdagi leksemalar manbalarda, jumladan, "Oltin yorug'" kabi buddaviylikka oid hikoyalarda ifodalangan. Ba'zi so'zlarning etimologik tahlili ham keltirishga, tahlillar davomida so'z ma'nosidagi o'zgarishlar, ma'no kengayishi va ma'no torayishiga uchragan so'zlar xususida fikr yuritishimizga zamin bo'ladi. Vaqt semantikasini anglash bevosita ontologik jarayon bo'lgani uchun ham, qadimgi davr leksik sathida munosib o'ringa ega bo'lgan va faol ishlatilgan. Ayrim leksemalarga e'tibor qaratilsa, boshqa leksema ma'no qirrasidasn uzilib yangi ma'no hosil qilgan bo'lsa, ayrimlari ma'no kengayishi hisobiga yangi so'zlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Kun, oy so'zlari dastlab predmentni nomlagan bo'lsa, keying o'rinda, mavhum vaqtni ifodalash uchun ham xizmat qila boshlagan. Ayni kunimizda ham ko'plab turkiy tillarda kun so'zi quyosh ma'nosini ifodalashdan chekingan va ayni kunda, asosan, hafta qisimi sutka ma'nosini ifodalash uchun, yoki sutkaning quyosh chiqishdan botguuncha bo'lgan qismini ifodalab kelmoqda. Qadimgi va eski davr turkiy leksemalarining hozirgi kun vaqt ma'nosini ifodalashi haqida aytishdan oldin, barcha turkiy vaqt leksemalarning asosiy qismi qadimgi davr turk tili davrida paydo bo'lgani yoxud hozirgi turkiy tillardagi vaqt sematik maydonining asosi bo'lganligini alohida ta'kidlashimiz darkor.

### **Adabiyotlar**

- Aхтамова Х. 1988. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчи формалар// Ўзбек тили ва адабиёти. -- №1.
- AP = Gulcali, Zemiye. 2013. Eski uygurca Altun yaruk'dan "Aç Pars" hikayesi. Ankara: TDK.
- AY = Çetin, Engin. 2012. Altin yaruk. Adana: Karahan.
